

Fransuz tili fanidan test topshiriqlarini bajarish bo'yicha abituriyentlar uchun ayrim tavsiyalar

1 - test topshirig'i

Mettez le verbe au temps convenable.

Je te lance le ballon et tu l'attraper.

- A) vais
- B) viens
- C) vas
- D) allais

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.1.6 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1.5 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan birinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Bu topshiriqni to'g'ri bajarish uchun „Futur immédiat“ (yaqin kelasi zamon) ning yasalishi haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak.

Bu zamon quyidagicha yasaladi:

«Aller» (bormoq) fe'lining Présent de l'Indicatif (aniq mayldagi hozirgi zamon) dagi shakli olinib, unga asosiy tuslanuvchi fe'ning Infinitif (tuslanmagan) shakli qo'shiladi.

Je vais attraper

Nous allons attraper

Tu vas attraper

Vous allez attraper

Il, elle va attraper

Ils, elles vont attraper

Ushbu topshiriqda asosiy tuslanuvchi fe'ning Infinitif shakli turibdi. Sizdan esa „tu“ kishilik olmoshidan keyin « Aller » fe'lining unga mos shaklini topish talab qilinmoqda. « Aller » fe'li 2-shaxs birlik (tu) da « **vas** » shaklida tuslanadi.

To'g'ri javob: C) vas

Manba: S. Raxmonov va b. « D'un Etat à l'autre ». Pour la 9-ème. 31 bet. Toshkent 2014.

2 - test topshirig'i

Mettez les articles ou les prépositions qui conviennent.

Un bon régime c'est beaucoup ... légumes et peu ... graisses.

- A) de/des
- B) les/les
- C) des/des
- D) de/de

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.1.1 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1.9 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan birinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Mazkur topshiriqni to'g'ri bajarish uchun abituriyent artikllarning tushib qolishi haqidagi mavzuni puxta o'rgangan bo'lishi kerak.

Miqdorni ifodalovchi so'zlardan keyin artikl tushib qoladi va uning o'rnida „de“ predlogi ishlatiladi.

Un bon régime c'est beaucoup de légumes et peu de graisses.

To'g'ri javob: D) de/de

Manba: Z. Abdushukurova va b. « Voyage en France ». Manuel de français pour la 6-ème. 192 bet. Toshkent 2009.

3 - test topshirig'i

Employez le temps du subjonctif.

Tout est très sale, il faut que je (faire) le ménage et la vaisselle.

- A) ferais
- B) fais
- C) fasse
- D) aurait fait

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.1.7 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1.5 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan ikkinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun fe'llarning Présent du subjonctif (xohish-istak maylidagi hozirgi zamon) da tuslanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak.

Ko'pchilik fe'llarni présent du subjonctif (xohish-istak maylidagi hozirgi zamon) da tuslash uchun ularning présent de l'indicatif (aniq mayldagi hozirgi zamon) da 3-shaxs ko'plikdagi o'zak qismi olinib, quyidagi shaxs-son qo'shimchalari qo'shiladi. **-e, -es, -e, -ions, -iez, -ent.**

Tout est très sale, il faut que je fasse le ménage et la vaisselle.

To'g'ri javob: C) fasse

Manba: V. Buxin va b. «Bon voyage!» . Manuel de français pour la 7-ème. 103 bet. Toshkent 2013.

4 - test topshirig'i

Choisissez le pronom relatif qui convient.

Quel est l'objet tient la Statue de la Liberté ?

- A) que
- B) dont
- C) où
- D) qui

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.1.4 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1.13 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan birinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Ushbu test topshirig'i nisbiy olmoshlardan biri « **que** » ning ishlatilishi bilan bog'liq. « **que** » nisbiy olmoshi shaxs va narsa-buyum nomlari o'rnida qo'llanadi va gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Quel est l'objet que tient la Statue de la Liberté ?

Ce sont les livres que je vous ai apportés.

To'g'ri javob: A) que

Manba: S. Raxmonov va b. «D'un Etat à l'autre». Pour la 9-ème. 51 bet. Toshkent 2014.

5 - test topshirig'i

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 4.1.2 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 2.1.7 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan uchinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Ushbu test topshirig'i bitta matn bo'yicha tuzilgan to'rtta topshiriqni o'z ichiga oladi. Mazkur topshiriqlarni bajarishda matndagi har bir so'zni tushunish emas, balki ularning orasidan kalit so'zlarni topa olish va o'qilgan matnning asosiy mazmunini tushuna olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ifodalangan voqealarning vaqt, sabab-natija jihatdan o'zaro bog'liqligini aniqlay olish, keltirilgan dalil va voqealar jarayonining rivoji va oqibatlarini taxmin qila olish, tasvirlangan voqea-hodisalarning umumiy ko'rinishini tasavvur qila olish ham sizga ushbu topshiriqlarni to'g'ri bajarishingizda yordam beradi.

Lisez le texte et répondez aux questions (5-8)

La Loterie GREEN CARD

Chaque année le gouvernement américain organise une loterie gratuite permettant à environ 50000 étrangers de recevoir le fameux sésame. Ce programme a été créé en 1995. Les gagnants de la loterie peuvent jouir de tous les avantages et les bénéfices d'un résident américain permanent, en incluant la santé, le travail et aussi, toutes les opportunités en matière d'éducation cependant, ils doivent obéir aux lois et payer les impôts, mais ne sont pas citoyens américains. Les détenteurs de cette loterie n'ont pas seulement le droit de voter. Cette loterie a lieu entre le mois d'octobre et le mois de novembre. Les résultats de la loterie ne sont disponibles qu'à partir du mois de mai, 7 mois après avoir fait votre inscription.

5. En quelle année a été créée la loterie GREEN CARD?

- A) En mille neuf cent quatre-vingt cinq
- B) En mille huit cent quatre-vingt-quinze
- C) En mille neuf cent quatre-vingt-quinze
- D) En mille neuf cent quatre-vingt-seize

Izoh: Bu savolga to'g'ri javob topish uchun siz matndagi « Ce programme a été créé en 1995» gapiga e'tibor qaratishingiz va tagiga chizilgan raqamning fransuz tilida aytilishini bilishingiz kerak bo'ladi.

To'g'ri javob: C) En mille neuf cent quatre-vingt-quinze

6. Les détenteurs n'ont pas le droit

- A) à l'éducation
- B) au travail
- C) au vote
- D) à la résidence permanente

Izoh: Bu savolning javobini topish uchun matndagi “Les détenteurs de cette loterie **n'ont pas seulement le droit de voter**” gapiga e'tibor berish kerak.

To'g'ri javob: C) au vote

7. Quel est le contraire du mot « l'avantage »?

- A) le bénéfice
- B) le profit
- C) l'utilité
- D) l'inconvénient

Izoh: Matndagi « l'inconvénient » so'zi «l'avantage » so'ziga antonim bo'ladi.

To'g'ri javob: D) l'inconvénient

8. Où est née cette loterie GREEN CARD?

- A) aux Etats-Unis
- B) au Canada
- C) en Angleterre
- D) en France

Izoh: Matndagi ushbu “Chaque année le gouvernement américain organise une loterie gratuite permettant à environ 50000 étrangers de recevoir le fameux sésame” gapi tarkibidagi « **le gouvernement américain** » jumlasida to'g'ri javob "**aux Etats-Unis**" (Amerika qo'shma shtatlarida) ekanini ko'rsatib turibdi.

To'g'ri javob: A) aux Etats-Unis